ISLOM KARIMOV –ABADIYATGA DAXLDOR SHAXS

Hech narsa abadiy emas dunyoda,
Mavjlanib so‘nadi yulduzlar bir kun.
Ba’zilar yashaydi jonini berib,
Qalblarda abadiy yashamoq uchun.

Hayot deb atalmish ne’mat dunyodagi jamiki insonlarga bir marta beriladi. Har kim o‘z hayotini o‘zi orzu qilgandek o‘tkazishga harakat qiladi. Shu bilan birga har bir inson qalbida turlicha orzular yashaydi va albatta, ular hech bir shaxsda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Inson hayotida sodir bo‘lgan turli voqea-hodisalar, yoki ma’lum shaxslar uning qalbida qandaydir orzu-istakning paydo bo’lishiga sabab bo‘ladi. Ko‘plar yoshligidan kimlargadir o‘xshashga harakat qiladilar. Turli mashhur shaxslarning odatlarini o‘zlariga singdirishga va ularning hayot yo‘llarini o‘zlarininki bilan bog‘lashga urinadilar. Lekin bunga munosib nomzodni topish har doim ham oson kechavermaydi. Chunki ularning hayollaridagi qahramonlarni har doim ham uchratavermaymiz. Bunday insonlar yuz yilda bir marta dunyoga kelib, ularning hayot yo‘llari avlodlar qalbida mangu saqlanib qoladi va o‘zlari abadiyatga dahldor shaxslar sifatida e’tirof etiladilar.

Shunday zotlar bo‘ladiki ular nafaqat bir insonning, balki butun bir xalq qalbining tub-tubidan munosib o‘ rin egallaydi va ularning xotirasida o‘chmas iz qoldiradi. O‘tmishi va kelajagi buyuk bo‘lgan o‘zbek xalqining ham tarixida juda ko‘plab mana shunday qahramonlar , noyob zakovat egalari yashab o‘tganlar. Ona xalqimiz asrlar davomida mana shunday buyuk shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan. Har bir o‘tgan davr o‘ziga hos nomlar bilan yodimizda qolgan. Yigirmanchi asr oxiri, yigirma birinchi asrning dastlabki yillari yurtimiz tarixida mustaqillik yillari deb yuritiladi. Ushbu davr Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov nomi bilan uzviy bog‘liq. Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, “ Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi” degan so‘zni eshitgan har bir yurt farzandining ko‘z o‘ngida mana shu “dilbar shaxs” gavdalanadi.

Islom Karimov O‘zbekistonni mustaqillikka olib chiqqan va uni taraqqiyot sari boshlab borgan buyuk davlat arbobi, xalq mehrini qozongan va butun umr mana shu xalq uchun yashagan ulug‘ vatan farzandi edi. Ushbu noyob iste’dod

egasi Respublika rahbari sifatida faoliyat boshlaganidan beri, O‘zbekiston 25 yil davomida asrlarga tatigulik yo‘lni bosib o‘tdi. Bir vaqtlar bir yoqlamalilik hukm surgan va “ paxta yakka hokimligi” iqtisodiyotining asosiy o‘zagi bo‘lib qolgan mamlakat, juda qisqa vaqt ichida sanoatning deyarli barcha sohalarida yutuqlarga erishgan va iqtisodiyoti jadal suratlar bilan rivojlanayotgan Respublikaga aylandi. Islom Karimovning yo‘lga qo‘ygan yoshlarga oid davlat siyosati va u kishining qarorlari bilan 1997-yilda qabul qilingan “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ertamiz egalari bo‘lgan yosh avlodni hech kimdan kam bo‘lmay, dunyoda har qanday sohada o‘z tengqurlari bilan bellasha oladigan munosib farzand sifatida voyaga yetishlarida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Aynan u kishining tashabbuslari bilan **“ O‘zbekistonda qabul qilingan, “o‘zbek modeli” deb nom olgan, ijtimoiy yo‘naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta’minlash , davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-boqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o‘ziga xos yo‘li – bularning barchasi, ayniqsa 2008-yilda boshlangan va hanuz davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida o‘zining nechog‘lik to‘g‘ri va hayotiy ekanini isbotladi”** . Bir so‘z bilan aytganda Islom Karimov kuchli strategik qobiliyat egasi va dono islohotchi sifatida Vatanimizning kelajakdagi taraqqiyot yo‘lini aniq belgilab berdi.

Tarixda davlatlarga tashqi dushmanlarning qurolli yurishlari xavf solgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri insonlar ongiga yo‘naltirilgan mafkuraviy hujumlarga aylandi. Terrorizm, ekstrimizm kabi illatlar dunyoga xavf solayotgan XXI asrda davlatni turli oqimlar tahlikalaridan asrash, insonlarni to‘g‘ri yo‘ldan boshlab borish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Ammo Islom Karimov Vatanimiz tinchligiga mana shunday yovuz kuchlar rahna solayotgan bir paytda ham, o‘zining ulkan siyosiy tajribasi evaziga yurt tinchligini va xalq hotirjamligini ta’minladi va Respublikamizni tahlikali, siyosiy vaziyatlardan olib chiqdi.

Yurt tinchligi, uning ozodligi haqida gap ketganda birinchi prezidentimizning aytgan so‘zlari har qanday farzandni Vatanni sevishga va uni ko‘z qorachig ‘idek asrab avaylashga undaydi. U kishi o‘zbek xalqiga qarata shunday degan edi:

“Bizning o‘z aqlimiz, bilim va tajribamiz, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan yo‘limiz bor. Biz qaramlik va tutqunlikka qaytishga hech qachon rozi bo‘lmaymiz. Biz eski tuzumni tiklashga qaratilgan hech qanday ittifoqqa hech qachon kirmaymiz, mustabid sovet davriga aslo qaytmaymiz. Shaxsan men butun hayotimni, butun umrimni xalqimizning ozodligiga, Vatanimiz mustaqilligiga bag‘ishladim va bu yo‘ldan hech qachon qaytmayman”.

Chindan ham bu inson butun hayotini Vataniga, xalqiga bag‘shida etdi va umrining so‘nggi lahzalariga qadar yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini hamma narsadan ustun bildi. U kishining har bir aytgan so‘zlari va qoldirgan asarlari kelajak avlodlarga ibrat vazifasini o‘taydi. **“Eng muhim, eng katta baxt”**, – degan edi Islom Abdug‘aniyevich **“meni fikrimcha, jamiyatga, xalqqa va ota-onaga xizmat qilish va o‘z nomini doim pok saqlash”** . U har doim shu maqsad, shu o‘y bilan yashadi va xalq ishonchini, xalq mehrini qozondi.

Islom Karimov o‘z ma’ruzalaridan birida **“ Kimki mustaqillik yillarida O‘zbekiston qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarni ko‘rmoqchi bo‘lsa, avvalo odamlarning, xalqimizning yuziga, ko‘ziga qarasin. Maktab, litsey va kollejlarda ta’lim-tarbiya olayotgan bolalarning chehrasiga boqsin”** – degan edi. Yuz-ko‘zlarida kelajakka umid bilan Vatanga bo‘lgan muhabbati ufurib turgan mustaqil yurt farzandlari mana shu kunlarni boshlab bergan, qalblarida kelajakka va o‘zlariga ishonch uyg‘otgan va har doim ular bilan birga bo‘lgan Islom Abdug‘aniyevich Karimovni hech qachon unutmaydilar. Bu buyuk insonning xotirasi butun o‘zbek xalqining qalbida va avlodlar yodida mangu yashaydi. Islom Karimov nomi olis kelajakda ham buyuk O‘zbekistonning asoschisi sifatida e’tirof etiladi.

TPUT M.E First level student of G2-15 group

Sherali Sodiqov